



XALQ DEPUTATLARI YANGIHAYOT TUMAN KENGASHINING Q A R O R I

2023 - yil 18 - may

I-58-84-14-220-K/23

Yangihayot tuman hokimligi

Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudining 2023-yil birinchi chorakdagi faoliyati to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi O'RQ-703-son Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tomonidan sudlar faoliyatiga oid axborotni eshitish amaliyotining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020- yil 13-iyuldagi KQ-104-IV-son qaroriga asosan sud organlari tizimida odil sudlovni ta'minlash bo'yicha ishlarning ahvoli, muammolar va kelgusidagi vazifalar borasidagi faoliyatni samarali tashkil etish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-11-son farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi faoliyati to'g'risidagi axborotni tinglab, xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi raisi B.Tashpulatovning "Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudining 2023-yil birinchi chorakdagi faoliyati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jinoyat ishlari bo'yicha Yangihayot tuman sudi raisi B.Tashpulatovga:

"Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yilida sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudlar faoliyati samaradorligi va odil sudlov sifatini oshirish borasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash;

inson huquqlarini himoya qiluvchi sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, sudda ishlarni ko'rish va hal etishning sifatini oshirish orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;

"Inson qadri uchun" g'oyasi asosida adolatli sud qarorlarini qabul qilish orqali fuqarolarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;

jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini bartaraf etish hamda qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash masalasi bo'yicha tumandagi mutasaddi tashkilot va idoralar bilan o'zaro hamkorliklarni kuchaytirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularning har bir vajini chuqur va atroflicha o'rganilishini ta'minlab, javoblarning to'liq hamda asosli bo'lishini nazoratga olish;

mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va kiritilayotgan yangiliklarning mazmun-mohiyatini aholiga sayyor qabullar, ochiq muloqotlar, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar, davra suhbatlari va huquqiy targ'ibot ishlari orqali muntazam ravishda yetkazib borish tavsiya etilsin.

3. Yangihayot tuman sektor rahbarlari (X.Inogamov, A.Azimov, M.Raimov, A.Ibragimov) bilan birgalikda jinoyatlar soni oshgan har bir mahallada jinoyat sodir etilishiga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilish, kriminogen vaziyatdan kelib chiqib, 2023-yil mobaynida keskin kamaytirish yoki sodir etilmaslik choralarini ko'rish tavsiya etilnsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Yangihayot tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiya (A.Iminoxunov) zimmasiga yuklatilsin.

**Xalq deputatlari Yangihayot
tuman Kengashi raisi**



X.Inogamov